

## O‘ZBEK TILI DIALEKTOLOGIK BIRLIKLARINING SEMANTIK IZOHIGA DOIR BA’ZI MASALALAR

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi  
Aslanova Marjona Azamatjonovna  
Ilmiy rahbar: O‘zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida assistenti  
Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tili shevalariga oid ba’zi so‘zlarning ma’noviy izohlari va o‘zbek tili shevasining ma’noviy izohlari va o‘zbek tili shevasining muhim jihatlari hamda shevaga oid so‘zlar haqida nazariy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** Xalq shevalari, dialektal so‘zlar, adabiy til, shevaga oid so‘zlarga misollar.

**Abstract.** In this article, the semantic explanations of some words related to Uzbek language dialects and important aspects of the Uzbek language dialect and theoretical information about the words related to dialects are given

**Key words.** Folk dialects, dialectal words, Uzbek language, local area.

Sheva - ma’lum bir hududdagina ishlatiladigan va shu hudud uchun tushunarli bo‘lgan shevalardan foydalanadilar. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi.

Professor Hasanboy Jamolxonov lahja va sheva tushunchalariga quyidagicha ta’rif beradi:

“Lahja- fonetik, leksik va grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yig‘indisi. U dialekt nomi ham ataladi.

Sheva - muayyan tilning o‘ziga xos fonetik leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi”. [1:18]

Quyida o‘zbek tili izohli lug‘atidan joy olmagan hozirda ma’lum tor doiradagi hudud egalari uchungina tushunarli bo‘lgan va faqat ular foydalana oladigan so‘zlar va ularning qisqacha izohini keltirib o‘tamiz.

Emasa (m) – adabiy tildagi muqobili “bo‘lmasa” ma’nosini anglatadi, bu so‘z hozirgi kunda Qashqadaryo hududida ishlatiladi, ya’ni Qashqadaryo shevasiga oid so‘z. [2:104] Bu dialektal birlik ba’zi shevalarda juda keng qo‘llaniladi. Ayrim hududlarda “esa” shakli ishlatiladi.

En – adashib ketmasligi uchun mol qulog‘iga solinadigan belgi, tamg‘a ma’nosini anglatadi.

- Men ham bir qo‘yni qo‘ziligidan enlab qo‘ygan edim. (Pirimqul Qodirov “Qora ko‘zlar” [2: 104])

Chorvachilik bilan bog‘liq bo‘lgan bu termin chorchilik bilan shug‘ullanuvchi hudud kishilari nutqida ko‘p ishlatiladi.

En olmoq - adabiy tildagi muqobili taqlid qilmoq, namuna olmoq, bu so‘z Jizzax hududida istiqomat qiluvchi aholi o‘rtasida ishlatiladigan sheva hisoblanadi.

Enish - adabiy tildagi muqobili tog‘ning qiyalik joyi, bu so‘z ham Jizzax hududida istiqomat qiluvchi aholi uchun ma’lum bo‘lgan sheva hisoblanadi.

Enishga yo‘l topgan suv toshlatni bo‘lib turar edi. (Bahodir Qobilov “Oybuloq”). [2:104] Bu soz’ adabiy tildagi qiyalik so‘ziga to‘g‘ri keladi.

Qoratikan - adabiy tildagi muqobili “buta”. G‘arbiy va O‘rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda tarqalgan. Bo‘yi 2-3 metrga teng itjumrutdirlarga mansub sertikan buta, ba‘zan daraxtcha [2: 244].

Qorash (qoramag‘iz) - xuchbichim shu ayol umr yo‘ldoshim, anavi o‘zimga o‘xshagan qorash, shukrim, o‘g‘lim! (Ulug‘bek Hamdam “Yolg‘izlik”) [2: 244]. Inson terisining rangini ifodalovchi so‘z adabiy tilda qoramag‘iz so‘zining sinonimidir.

Qora sho‘rak - qora sho‘r o‘rik, “olxo‘ri” adabiy tildagi muqobili.

Qoratovon - adabiy tildagi muqobili tinim bilmay mehnat qiladigan mehnatkash ma’nosida qo‘llaniladi [2: 244] Bu so‘z orqali tinmay mehnat qiladigan, jafokash kishiga nisbatan ishlatiladi.

Qoravut - rangning me‘yordan ortiqligi. Qarqaraning minadigan oti o‘zining rang-tusiday qoravut emas. (G‘ozi Rahmon “Qarqara mergan”) [2:244]. Odatda, sifatning orttirma darajasini ifodalashda shevalarda mana shunday maxsus birliklar ham qo‘llaniladi.

“Sheva - umuman tilning lingvomadaniy tadqiqi uchun madaniyat “tili” vazifasini bajaradigan va sheva vakillarining milliy - madaniy mentalligini ko‘rsatuvchi barcha lisoniy birliklar (shevaga xos iboralar, xalq maqollari va matallari o‘xshatishlar va milliy stereotiplar, sheva vakillarining madaniy muloqoti) muhimdir.” [2:7]

Xulosa qiladigan bo‘lsak, har qanday til ikki yo‘l bilan boyidi, ya’ni tashqi va ichki manbalar orqali. Tashqi manbalar orqali boyish chetdan so‘z olish, ichki manbalar esa o‘z o‘rnida mamlakat hududidagi shevalardan so‘z olish orqali boyidi.

Shevaga oid so‘zlardan foydalanish tilning taraqqiy etishida yanada tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida o‘rganilishga asos bo‘lgan ma’lum shevaga oid so‘zlar nafaqat o‘zi foydalanadigan hudud, balki boshqa hudud vakillari uchun ham tushunarli bo‘lib bo‘lib bormoqda. Bunday so‘zlar o‘zbek dialektologiyasining ancha qismini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jamolxonov H. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” - Toshkent: “Talqin”, 2005, 272 b.
2. O‘zbek xalq so‘zlari - Toshkent – 2023, 391 b.
3. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent 2013. 191 b.